

TA'LIM SOHASIDA IJTIMOYIY LOYIHALARNI JORIY ETISH

JARAYONINI BOSHQARISH

Qurbonova Gulnoza Po'latovna

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar Universiteti Loyiha boshqaruvi (Project Management)
magistratura mutaxassisligi tinglovchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Hududiy ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi uslubchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15271658>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy loyihalarning ta'lim tizimidagi o'rni, ularni joriy etish jarayonining asosiy bosqichlari, boshqarish mexanizmlari va samarali usullari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sohasida ijtimoiy loyihalarni joriy etish jarayonini boshqarish masalalari ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy loyihalarni joriy etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, ijtimoiy loyiha, boshqaruv, samaradorlik, strategiya, innovatsiya.

УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССОМ ВНЕДРЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется роль социальных проектов в системе образования, основные этапы процесса их внедрения, механизмы управления и эффективные методы, а также возможные проблемы. Также рассматриваются вопросы управления процессом внедрения социальных проектов в сфере образования.

Описываются проблемы внедрения социальных проектов и пути их решения.

Ключевые слова: образование, социальный проект, управление, эффективность, стратегия, инновация.

MANAGEMENT OF THE IMPLEMENTATION PROCESS OF SOCIAL PROJECTS IN EDUCATION

Abstract. This article analyzes the role of social projects in the education system, the main stages of their implementation process, management mechanisms and effective methods, as well as potential challenges. It also examines the management of social project implementation in education. The article describes the problems encountered when implementing social projects and ways to address them.

Keywords: education, social project, management, effectiveness, strategy, innovation.

Ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasida ijtimoiy loyihalar – jamiyatdagi muayyan muammolarni hal qilish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuslar majmuidir.

Ijtimoiy loyihalar ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali jamiyatning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish, barcha qatlamlar uchun ta'limga teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratish mumkin. Bunday loyihalar, asosan, davlat, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar yoki xalqaro institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy loyihalarning ta'lim tizimidagi o'rni, ularni joriy etish jarayonlarining asosiy bosqichlari, boshqarish mexanizmlari va samarali usullari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mohiyatan, ijtimoiy loyihalar – bu jamiyat ehtiyojlarini qondirish va muayyan ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslar hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ijtimoiy loyihalar ta'lim tizimida bir qator muammolarga yechim topishda samarali yordam beradi. Xususan:

Teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish – kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlardagi bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini oshirish. Bu bepul darslar tashkil etish, stipendiyalar yoki o'quv resurslarini taqdim etish ko'rinishida bo'lishi mumkin.

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yil holatiga dunyo bo'yicha 250 million bola, jumladan, Markaziy va janubiy Osiyo mamlakatlarida maktab yoshidagi bolalarning har beshtadan bittasi, turli sabablarga ko'ra maktabga bormaydi.¹ Maktab yoshidagi bolalarning bunday ta'limdan chetda qolishi jamiyatda tengsizlikning o'sishiga, aholi orasida qashshoqlikning avloddan avlodga meros bo'lib o'tishiga, zaif guruhlar orasida jamiyatga integratsiyalashish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy loyihalar ta'limda inklyuzivlikni oshirishda yordam beradi.

Sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish – o'qituvchilar uchun qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etish, innovatsion pedagogik usullarni joriy qilish orqali ta'lim sifatini yaxshilash. Tez o'zgaruvchan muhitda ta'lim xizmatlarini tashkil etish o'qituvchilardan yangiliklarga ochiqlik, o'zgarishlarga moslashish, eng ilg'or ta'lim usullarini o'zlashtirish va texnologiya yutuqlarini ta'lim jarayonida qo'llashni talab etadi. Buning uchun esa, o'z navbatida, ularning muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va qo'shimcha tayyorgarlikdan o'tishi, treninglarda qatnashishi, o'qitishning eng ilg'or usullari bo'yicha yetakchi ma'lumotlar bazalari va resurslaridan foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. O'zbekistonda ham o'qituvchilar malakasini oshirishga ta'lim sifatining kafolati sifatida qaraladi.

¹ <https://www.unesco.org/en/articles/250-million-children-out-school-what-you-need-know-about-unescos-latest-education-data>

Xususan, 2020 yilning 6 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmonida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgani holda, sohadagi rahbar va pedagog-xodimlarni “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish ko‘zda tutilgan.²

Infratuzilmani rivojlantirish – maktablar, kutubxonalar va ta’lim resurslarini yaratish va modernizatsiya qilish. Shuningdek, STEM, inklyuziv ta’lim, raqamli ta’lim kabi yangi modellarni rivojlantirish, onlayn kurslar, masofaviy ta’lim platformalari va texnologik infratuzilmani yaxshilash. Masalan, 2021 yilda USAID tomonidan Namangan va Sirdaryo viloyatlaridagi 208 ta davlat maktabiga 385 mingdan ortiq darslik va o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar yetkazib berilgan.³ Boshqa bir misol — Leader school nodavlat ta’lim muassasasi 2022 yildan buyon O‘zbekistondagi ilk to‘laqonli onlayn maktab — LeaderOnline’ni sinovdan o‘tkazdi va yaqinda qabul e’lon qildi.⁴

Kasbiy ta’lim va mehnat bozoriga integratsiya – yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish va amaliyot dasturlari orqali ish bilan ta’minlash. Masalan, avtomobil sanoatidagi yirik kompaniyalar, «General Motors» yoki «Toyota» kabi, kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini tashkil etadi.⁵ O‘quvchilar o‘qish jarayonidayoq ishlab chiqarish sexlarida amaliyot o‘taydi va bitirgach, shu korxonalarda ishga joylashtiriladi. Bundan tashqari, dual ta’lim tizimi modeli ham keng tarqalgan bo‘lib, bu tizimda o‘quvchilar darslarning bir qismini ta’lim muassasasida, qolgan qismini esa ish joyida o‘tab, real ish sharoitida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Ota-onalar va jamiyatni ta’lim jarayoniga jalb qilish – ota-onalar uchun seminarlar, ta’lim bo‘yicha ijtimoiy kampaniyalar tashkil etish. Ota-onalar va jamoatchilikning ta’lim jarayonidagi ishtiroki bolalarning muvaffaqiyatini oshiradi. Singapurda maktablar ota-onalar uchun muntazam ravishda «Parent Engagement Sessions» o‘tkazadi, bu yerda ular bolalarining ta’lim jarayonini va ularga qanday yordam berish mumkinligini yaxshiroq tushunishadi.⁶

² “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги президент фармони, 06.11.2020 й.

³ <https://www.usaid.gov/uzbekistan/news/nov-03-2021-usaid-delivers-more-385000-books-improve-student-learning-outcomes-uzbekistan>

⁴ https://leaderonline.uz/?utm_client_id=801330574.1734283157&utm_session_id=311725548019466&utm_ym_uid=334402563417462&utm_yandex_counter_id=94803684

⁵ Kang, Parminder & Bhatti, Rajbir. (2020). Continuous Improvement Philosophy in Higher Education: Lessons From the DNA of the Toyota Production System to Improve Course/Program Delivery Process. 10.4018/978-1-5225-9829-9.ch005.

⁶ <https://www.zhangdepri.moe.edu.sg/our-partners/parents/parents-engagement-sessions/>

O'zbekiston misolida «Ibrat farzandlari» kabi dasturlar ota-onalarga bolalarini tillarga va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha maslahatlar berib bormoqda.⁷ Qolaversa, dunyo miqyosida ta'limga jamoatchilikni jalb qiluvchi ijtimoiy kampaniyalar ham keng ommalashgan.

Oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish – zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish

Iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan talabalarga ko'mak berish – stipendiyalar, grantlar va moliyaviy yordam dasturlarini shakllantirish

Inklyuziv ta'limni joriy etish – imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan o'quv muhitini yaratish

STEM ta'limni rivojlantirish – fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarida talabalarning qiziqishini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish

1-chizma. Ta'lim sohasida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari.

Loyihalarni boshqarish loyihaning mohiyatiga ko'ra amal qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bunda loyihaning quyidagi alohida belgilariga e'tiborni qaratish muhim:⁸

- bir qator texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy va boshqa talablarning bir vaqtning o'zida bajarilishi bilan erishilishi zarur bo'lgan aniq maqsadlar;
- loyihani amalga oshirish jarayonida muvofiqlashtirilishi talab etiluvchi vazifalar, operatsiyalar va resurslarning tashqi va ichki o'zaro bog'liqligi;
- loyihaning boshlanish va yakunlanish muddatini aniqlash;
- resurslarning cheklanganligi;
- loyiha maqsadlarining betakrorlik darajasi va amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlash.

Ijtimoiy loyihalarni joriy etish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Muammoni tahlil qilish** – ta'lim tizimidagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularning yechimini talab qiluvchi sohalarini belgilash. Bu bosqichda statistik ma'lumotlar, tadqiqotlar va

⁷ <https://gov.uz/oz/yoshlar/sections/view/28071>

⁸ Shodiyarova M. S. "Ta'lim sohasidagi loyihalarni boshqarish". Journal of New Century Innovations. Vol. 39, Issue 1, 2023. Available at: http://www.newjournal.org/Volume-39_Issue-1_October_202367.

ijtimoiy fikrlar o'rganiladi. Bu tegishli muammo, uning tub ildizlari, uning ko'lami va ta'sir doirasi, unga ta'sir etuvchi omillar va uni hal etish uchun zarur shart-sharoitlarni to'g'ri baholash imkonini beradi. Ushbu bosqichda olingan tegishli natijalar va to'g'ri xulosalar loyihaning muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi va samarali tatbiq etilishini ta'minlaydi.

2. **Manbalarni aniqlash** – moliyaviy, insoniy va texnik resurslarni aniqlash (homiylar, grantlar, ko'ngillilar). Loyihani amalga oshirishga jalb etiladigan manbalarni aniqlashda ularning qonuniyligi va barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Loyiha uchun mo'ljallangan mablag'larni topish uchun mahalliy, xalqaro tashkilotlar yoki davlat grantlari, ishbilarmonlar yoki va homiylar ko'magini izlash bu bosqichning asosiy vazifasi hisoblanadi. Loyiha uchun ko'ngillilarni jalb qilishda ularni ilhomlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tegishli mutaxassislar (o'qituvchilar, trenerlar, loyiha menejerlari, psixologlar va h.k.) loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishida muhim rol o'ynaydi. Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuterlar, internet xizmatlari, multimedia qurilmalari, maxsus dasturlar yoki onlayn platformalarni aniqlash, shuningdek, loyihaga oid yordamchi xizmatlar, masalan, veb-sayt yaratish, dizayn ishlari, audio va video materiallarni ishlab chiqish zarur.

3. **Loyiha rejasini ishlab chiqish** – maqsadlar, vazifalar, resurslar va amalga oshirish strategiyasi, muddati, maqsad va kutilayotgan natijalarni belgilash. Bu bosqichda ishtirokchi tomonlar va manfaatdor guruhlarining fikri inobatga olinadi. Bu bosqichda loyiha yo'naltirilgan muammodan kelib chiqqan holda tegishli maqsad va vazifalar aniqlab olinadi. Loyiha maqsadini qo'yish va amalga oshirish muddatini belgilashda aniq raqamli ko'rsatkichlar bilan ifodalash muhim ahamiyatga ega. Bu loyiha yakunida erishilgan natijalarni kutilgan natijalar bilan taqqoslash va loyihaning samaradorligini baholashni osonlashtiradi.

4. **Loyihani sinovdan o'tkazish (pilot loyiha)** – loyihani cheklangan hudud yoki guruhda sinovdan o'tkazib, samaradorligini baholash. Loyiha sinovdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan mahalliy hudud yoki ishonchli guruh (masalan, maktab o'qituvchilari, talabalar, yoshlar) tanlanishi kerak. Bu guruh loyiha natijalari hamda istiqbolini aniq baholash imkonini beradi. Pilot loyihada ishtirok etish uchun belgilangan guruh maqsadli guruhga muvofiq bo'lishi, ya'ni loyihaning aniq maqsadi va vazifalariga mos bo'lishi lozim. Loyihaning sinov guruhida qatnashuvchilarni tanlash va ularning faolligini ta'minlashda o'quvchilar yoki ishtirokchilarga aniq vazifalar berish va ularni qiziqtirish muhim. Yakunda ishtirokchilarning loyiha to'g'risidagi fikr-mulohazalarini o'rganish loyihaning natijaviyligi, ishtirokchilarning loyihaga bo'lgan munosabatini va qiziqishini baholashga yordam beradi.

5. **Loyihani to'liq joriy qilish** – loyiha doirasida amalga oshiriladigan faoliyatlarni yo'lga qo'yish va boshqarish. Bu bosqichda kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy ta'minot ta'minlanadi. Loyihani to'liq joriy qilish bosqichi loyihaning barcha

komponentlarini amalga oshirish uchun zarur tadbirlarni ko'rishni talab qiladi. Bu bosqichda kadrlar tayyorlash, ya'ni loyiha uchun zarur bo'lgan mutaxassislar va ishchilarni safarbar qilish, ularga treninglar va kurslar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish, ya'ni zaruriy obektlar, resurslar va texnik tayoargarliklarni ta'minlash ham kerak.

Moliyaviy ta'minot esa loyihaning o'zaro joriy qilinishi uchun maqbul mablag'lar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, bu jarayonda grantlar yoki mablag' olish manbalari ishlatilishi mumkin.

6. Monitoring va baholash – loyihaning samaradorligini baholash, kerakli takliflar kiritish, kamchiliklarni bartaraf etish va takomillashtirish. Loyiha natijalarini tahlil qilish va takliflarni ishlab chiqish orqali uning uzoq muddatli ta'siri ta'minlanadi. Monitoring va baholash bosqichi loyiha amalga oshirilayotgan davrda uning samaradorligini kuzatishni va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Loyiha ishga tushirilgandan keyin, amalga oshirilgan faoliyatlar, resurslar va sarflar to'g'risidagi ma'lumotlar to'planib, loyiha maqsadlariga qanchalik erishilgani baholanadi. Agar kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish va loyihani rivojlantirish uchun takliflar kiritiladi.

Loyiha natijalari tahlil qilinganidan keyin, uning uzoq muddatli ta'sirini ta'minlash maqsadida yangi takliflar ishlab chiqiladi, bu esa loyiha natijalarining to'liq amalga oshirishini va ijobiy ta'sirni ta'minlaydi.

7. Barqarorlikni ta'minlash – loyiha tugaganidan keyin ham ta'sirini saqlab qolish strategiyalari. Barqarorlikni ta'minlash, loyiha tugaganidan keyin uning ta'sirini uzoq muddat saqlab qolishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu bosqichda loyiha natijalari va ta'siri uzoq vaqt davomida saqlanishi uchun barqaror mexanizmlar, monitoring tizimlari va huquqiy asoslar tuziladi. Loyihaning natijalari barqaror bo'lishini ta'minlash uchun, mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda ishlash, qonuniy me'yorlar va iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, loyiha tugagandan keyin ham uning ta'siri yoki foydasi har tomonlama yo'naltirilgan holda saqlanishi kerak.

Ijtimoiy loyihalarni boshqarishda turli modellar qo'llaniladi:


Davlat tomonidan boshqarish – davlat tashkilotlari tomonidan qonunchilik va moliyaviy ko'mak asosida amalga oshiriladigan loyihalar.

Xususiy sektor ishtiroki – korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasida xususiy kompaniyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan loyihalar.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik – BMT, Jahon banki, YuNESKO va boshqa tashkilotlar tomonidan grant va moliyaviy yordam asosida amalga oshiriladigan dasturlar.

Jamoatchilik ishtirokidagi modellar – mahalliy jamoalar, NNTlar va volontyorlar ishtirokidagi tashabbuslar.

Loyihalarni boshqarishda foydalaniladigan modellarning har biri o'z afzallik va kamchiliklariga ega. Tegishli loyiha uchun boshqaruv modelini tanlashda hal qilinishi ko'zlangan muammoning tabiati, ta'sir doirasi, loyihaning ko'lami, talab qilinadigan resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda qaror qabul qilish maqsadga muvofiq. Ayrim loyihalarda modellar aralash shaklda ham qo'llanilishi mumkin: davlat va xususiy sheriklik, hukumat va xalqaro tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar va jamoatchilik yoki mahalliy NNTlar ishtirokidagi boshqaruv ham amaliyotda keng ommalashgan.



2-chizma. Ijtimoiy loyihalarni boshqarish modellari.

Ijtimoiy loyihalarni samarali joriy etish ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni boshqarishda davlat hokimiyati, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash talab etiladi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan loyihalar, har qanday sohada bo'lmasin, amalga oshirish jarayonining muayyan murakkabliklariga ega. Sababi — bunday loyihalar asosan notijoriy maqsadlarda, jamiyatda farovonlikni oshirish va ijtimoiy tengsizlikka barham berish maqsadida amalga oshiriladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish va barcha sohalarida inklyuziv o'sishni ta'minlashga har doim ham davlat resurslarining o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin.

Ijtimoiy loyihalarni joriy etish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi;
- infratuzilma yetishmovchiligi;
- mutaxassislar yetishmovchiligi;
- loyiha menejment mahoratlarining pastligi;

- bo'lajak ishtirokchilarning yetarlicha xabardor emasligi;
- davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikning kamligi.

Shundan kelib chiqib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial muammolarning oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali yechim topish, ya'ni ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish – innovatsion moliyaviy hamkorlik mexanizmlari (grantlar, fondlar, sarmoyaviy sheriklik) orqali loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

- Loyiha boshqaruvi sohasida mutaxassislar tayyorlash – ta'lim muassasalari va trening markazlari orqali menejment ko'nikmalarini oshirish, innovatsion qurilish texnologiyalarini joriy etish, malaka oshirish kurslari va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish;

- Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari orqali ijtimoiy loyihalar haqida xabardorlikni oshirish – aholining faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv platformalar yaratish, jamoatchilik-davlat sherikligi mexanizmini takomillashtirish va xususiy sektorni rag'batlantirish.

Shunday qilib, ijtimoiy loyihalarni joriy etish ta'lim sohasida ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, bu loyihalar mahalliy jamoalarni hamda mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Loyihalar orqali yoshlar, oilalar va jamiyatning ta'limga bo'lgan kirish imkoniyatlari kengayadi, bu esa ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'limning sifatini oshirish va uning muammolarini bartaraf etish orqali ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin.

Loyihalarni to'g'ri joriy qilish va monitoring qilish natijasida, ularning samaradorligi va ta'siri o'z vaqtida baholanishi va takomillashtirilishi mumkin. Barqarorlikni ta'minlash esa loyiha tugaganidan keyin ham uning ijobiy ta'sirini saqlash va uni uzoq muddatda hayotga tadbiq etishni ta'minlaydi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy loyihalar ta'lim sohasidagi taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, har bir jamoaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojiga hissa qo'shadi. Barqaror ijtimoiy loyihalar orqali jamiyatdagi oliy ta'lim va kasbiy malaka darajasini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Loyihalarning to'g'ri amalga oshirilishi, ularning samaradorligi va ta'sirini kuzatish muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni, 06.11.2020 y.

2. Kang, Parminder & Bhatti, Rajbir. (2020). Continuous Improvement Philosophy in Higher Education: Lessons From the DNA of the Toyota Production System to Improve Course/Program Delivery Process. 10.4018/978-1-5225-9829-9.ch005.
3. Shodiyarova M. S. "Ta'lim sohasidagi loyihalarni boshqarish". Journal of New Century Innovations. Vol. 39, Issue 1, 2023. Available at: http://www.newjournal.org/Volume-39_Issue-1_October_202367.
4. <https://www.unesco.org/en/articles/250-million-children-out-school-what-you-need-know-about-unescos-latest-education-data>.
5. <https://gov.uz/oz/yoshlar/sections/view/28071>.
6. <https://www.usaid.gov/uzbekistan/news/nov-03-2021-usaid-delivers-more-385000-books-improve-student-learning-outcomes-uzbekistan>.
7. https://leader-online.uz/?utm_client_id=801330574.1734283157&utm_session_id=311725548019466&utm_ym_uid=334402563417462&utm_yandex_counter_id=94803684.
8. <https://www.zhangdepri.moe.edu.sg/our-partners/parents/parents-engagement-sessions/>.